

2 - kung

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Termiz davlat universiteti rektori

U. R. Marximov

2023 yil

KAR'ERANI RIVOJLANTIRISH
fanidan

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400000- Biznes. Boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi: 410000- Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi: 60411400- Inson resurslarini boshqarish

Termiz-2023

Fan/modul kodi CARDEV6	O'quv yili 2023- 2024	Semestr 4	ECTS-kreditlar 6
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Xaftadagi dars soatlari 5
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Kar'erani rivojlantirish	72	108	180

I. Fanning mazmuni

Fanning mazmuni o'qitishdan maqsad – Ushbu fan kadrlar menejmenti, ijtimoiy xodimlar va ofis menejerlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash dasturiga kiritilgan bo'lib, bu fan kadrlar menejmentining negizini tashkil qiluvchi kar'era turlari, bosqichlari, kar'erani boshqarishning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy jixatlari kabi masalalarni qamrab oladi. Kadrlar menejmentida kar'erani boshqarish texnologiyalarini bilish, tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

“Kar'erani boshqarish” fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, bakalavryatning yuqori kursi va magistratura bosqichining 1- kursida o'qitilishi maqsadga muvofiq. “Kar'erani boshqarish” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Mazkur fanni o'qitishda kadrlar menejmenti bilan bog'lik boshqa iqtisodiy fanlarning nazariy va uslubiy asosini bilish talab qilinadi.

Fanning vazifasi - talabalarga personalni rivojlantirishni boshqarish texnologiyalari, uning faoliyati natijalarini baholash asoslari, kar'erani rivojlantirishga oid loyihalarning samaradorligini baholash, kar'erani rivojlantirish strategiyalari, takomillashtirish chora- tadbirlarini ishlab chiqishni, kar'erani rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari va boshqaruvning asosiy funksiyalarini amalga oshirish, personalni boshqarish bo'yicha bilimlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini tahlil qilishni o'rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi- talabalarga kar'erani boshqarishning nazariy asoslarini, kar'eraning asosiy tushunchalarini, kar'erani boshqarish sohasidagi amaliy va tahliliy ishlarni olib borish usullari va yunalishlarini o'rgatish hamda amaliyotda qo'llashda foydalana olishni o'rgatish;

- iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish;
- iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va aniq tasvirlashni o'rgatish;

- iqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy konsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Modul. Kar'erani rivojlantirishning nazariy asoslari

1-mavzu. Personal kar'erasi tushunchasi va uning turlari.

«Kar'era» va Kar'erani boshqarish tushunchalari. Kar'erani o'rganishga asosiy yondashuvlar. Kar'era va xayotiy yul tushunchalarini taqqoslash. Kar'era va kasbiy o'sish. Kar'era personalni rivojlantirishning asosiy jarayoni sifatida. Kar'erani tuzish jarayonining metodologik asoslari. Kar'era turlari. Kar'era modellari. **Mustaqil ta'lim**: Kar'era va xayotiy yul tushunchalarini taqqoslash to'g'risida testlar hamda krasvordlar tayyorlash.

2-mavzu. Personal kar'erasi bosqichlari. O'z-o'zini baholash.

Kar'era bosqichlari, ularning mazmuni. Xayotiy bosqichlari va kar'era. Kar'erani rejalashtirish va tashkil etishning yoshga doir va ruxiy jixatlari. Lavozim va kasbiy o'sishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari. Kar'era jarayonida xodimlarni qiziktiruvchi beshta jixat.

O'z-o'zini baholash bo'yicha asosiy tushunchalar. O'z-o'zini baholash kar'erani rivojlantirishning birinchi pogonasi sifatida. Test o'tkazish o'z-o'zini baholash usuli sifatida. Qobiliyatlar va shaxsiy sifatlarini baholash. T. Liri, MMPI. A. Ayzenk, Kettel, Lyusherning ranglar testi metodikasi. Kuchli va kuchsiz tomonlarni tahlil qilish. **Mustaqil ta'lim**: Menejmentning maktablari va modellari rivojlanish tarixi haqida referat va ko'rgazmalar tayyorlash.

3-mavzu. Kasbiy orientatsiya

Kasbiy orientatsiya yunalishlari. Kar'erani tanlashda shaxsga oid orientatsiya turlari. Gollandning kasbga oid shaxs turlari modeli. Kar'erani tanlash. Belgilovchi omillar. Xaqiqatdagi kiyinchiliklar va ularni bartaraf etish. Yoshga doir ixtiloflar va ularni engish yo'llari. “Kar'era o'rtasi” krizisi va uni yengish amaliyoti. Professiogramma: tahlil qilish va uni shakllantirishga talablar. Professiogrammani qo'llash.

4-mavzu. Xozirgi zamonda kar'erani boshqarish tizimi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kar'erani boshqarishning samarali tizimi raqobat ustuvorligi sifatida. Boshqarish modellari: Yaponiya, Amerika, Evropa modellari. Inson tashkilotning asosiy resursi sifatida. Ijtimoiy intellekt, ruxiy intellekt va ularning kar'era jihatdan ushhdagi ro'li.

Xodim investor sifatida. Ish beruvchi investor sifatida. Iqtisodiyotdagi inqiroz sharoitlarida kar'era. Yoshlar bilan ishlash kar'erani boshqarishning samarali dastagi sifatida.

5-mavzu. Kar'erani tashkiliy boshqarish

Kar'erani tashkiliy boshqarish tushunchasi va maqsadlari. Kar'eraning tashkilot rivojlanishining xayotiy sikli bilan bog'liqligi. Kar'era dinamikasi. Kar'eraning egiluvchan jarayonlari. Kar'era personal faoliyatida motivatsiya dastagi sifatida. Persolap kar'erasini rejalashtirishda motivatsiya nazariyalarini qo'llash. Kar'erani motivatsion modellashirish. Kar'erani boshqarish siyosati. Shaxslar kar'erasini investitsiyalash siyosati.

2-Modul. Kar'erani boshqarishning amaliy jihatlari

6-mavzu. Personal faoliyatini baholash

Kar'erani boshqarishda personalni baholash. Personalni baholash mazmuni va tamoyillari. Personalni baholash usullari va ularning mohiyati. Ijroni baholash. Baholash tizimini ishlab chiqish tamoyillari. Baholash jarayoni bosqichlari. Xodimlar salohiyatini baholash usullari va baholash mezonlari. Baholash markazlari usuli. Baholash markazlari, vazifasi va faoliyati mazmuni. Rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiya qilish tartibi. Personalni baholash ishlarini tashkil qilish.

7-mavzu. Personalni o'qitish tizimi va uning kar'erani boshqarish bilan bog'liqligi

Kar'era va personalni o'qitish. Personalni o'qitishga ehtiyojini aniqlash. Tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish o'qitish turlari sifatida. Personalni o'qitish shakllari va usullari. Personalni o'qitish samaradorligini baholash. Personalni rivojlantirishda o'qitishning roli.

8-mavzu. Kar'erani rejalashtirish

Kar'era ketma-ketligini rejalashtirish. Kasblar o'rindoshligi sxemasi. Ko'tarilishga personal rezervi. Kadrlar rezervini shakllantirish va hisobga olish tartibi. Lavozimda ko'tarilishga rezervlarni tayyorlash shakllari. Kar'erani tashkiliy rejalashtirish: asosiy tamoilari, yutuklari va bosqichlari. Kar'erani rejalashtirishning individual shakli: usish rejasi, bosqichlari. Kar'erani rejalashtirish muammolari.

9-mavzu. Kar'erani rivojlantirish

Kar'erani tashkiliy va individual rejalashtirish. Individual rejani ishlab chiqish. Kar'eraga oid maslahat berish. Kar'eraga asosiy yondashuvlarni tahlil qilish. Kar'erada murabbiylikning roli. Yutuqlari. Murabbiylik tizimini tashkil qilish. Personal kar'erasini rivojlantirishdagi yangi yunalishlar.

10-mavzu. Kar'erani rivojlantirishning gender jixatlari

Ayollar kar'erasini rivojlantirish muammolari. Ayollarni ishga joylashishdagi xususiyatlar. Ayol menejer kar'erasi. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ayollarning ishga joylashish muammolarini hal etish yo'llari. Erkaklar kar'erasi.

II. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (fun bo'yicha laboratoriya ishlari va kurs ishlari mo'ljallanmagun)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Personal kar'erasi tushunchasi va uning turlari.
2. Personal kar'erasi bosqichlari. O'z-o'zini baholash.
3. Kasbiy orientatsiya
4. Xozirgi zamonda kar'erani boshqarish tizimi.
5. Kar'erani tashkiliy boshqarish
6. Personal faoliyatini baholash.
7. Personalni o'qitish tizimi va uning kar'erani boshqarish bilan bog'liqligi.

8. Kar'erani rejalashtirish

9. Kar'erani rivojlantirish

10. Kar'erani rivojlantirishning gender jixatlari

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kar'erani boshqarishning ilmiy amaliy ahamiyati.
2. Kar'erani boshqarishda xodimning roli
3. Aksiyadorlik jamiyatlarida kar'erani boshqarish
4. Xususiy firmalarda kar'erani boshqarish masalasi
5. Tijorat banklarida kar'erani rejalashtirish va rivojlantirish

6. Kar'erani boshqarishda korporativ treninglarning o'rni	44. Kar'erani rejalashtirishning individual shakli: ushish rejasi, bosqichlari.
7. Tashkilotda ayollar kar'erasini boshqarish muammolari	45. Kar'erani tashkiliy va individual rejalashtirish
8. Kar'erani boshqarishda yoshga doir muammolar	46. Individual rejani ishlab chiqish.
9. Tashkilotda xizmat kasb jixatdan ko'tarilish. Ayollar kar'erasini rivojlantirish.	47. Personal kar'erasini rivojlantirishdagi yangi yunalishlar.
10. Kar'erani o'rganishga asosiy yondashuvlar.	48. Murabbiylik tizimini tashkil qilish.
11. Kar'era va kasbiy o'sish. Kar'era personalni rivojlantirishning asosiy jarayoni sifatida.	49. Kar'era murabbiylikning roli. Yutuqlari
12. Kar'erani rejalashtirish va tashkil etishning yoshga doir va ruxiy jixatlari.	50. Personalni o'qitish samadorligini baholash
13. Lavozim va kasbiy o'sishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari.	51. Baholash markazlari, vazifasi va faoliyati mazmuni
14. Kar'era jarayonida xodimlarni qiziktiruvchi beshita jixat.	52. Ayollar kar'erasini rivojlantirish muammolari.
15. O'z-o'zini baholash bo'yicha asosiy tushunchalar.	53. Ayollarni ishga joylashishdagi xususiyatlar.
16. Kar'erani tanlashda shaxsga oid orientatsiya turlari	54. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ayollarning ishga joylashish muammolarini hal etish yo'llari.
17. Xaqiqatdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish.	
18. Yoshga doir ixtiloflar va ularni engish yo'llari.	
19. Professiogramma: taxlil qilish va uni shakllantirishga talablar.	
20. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kar'erani boshqarishning samarali tizimi raqobat ustuvorligi sifatida.	
21. Boshqarish modellari: Yaponiya, Amerika, Evropa modellari.	
22. Ijtimoiy intellekt, ruxiy intellekt va ularning kar'era jihatdan usishdagi ro'li.	
23. Kar'erani tashkiliy boshqarish tushunchasi va maqsadlari.	
24. Kar'eraning tashkilot rivojlanishining xayotiy sikli bilan bog'liqligi	
25. Kar'era personal faoliyatida motivatsiya dastagi sifatida.	
26. Kar'erani motivatsion modelashtirish	
27. Shaxslar kar'erasini investitsiyalash siyosati.	
28. Kar'erani boshqarishda personalni baholash	
29. Personalni baholash mazmuni va tamoyillari	
30. Personalni baholash usullari va ularning mohiyati.	
31. Ijroni baholash. Baholash tizimini ishlab chiqish tamoyillari.	
32. Baholash jarayoni bosqichlari.	
33. Xodimlar salohiyatini baholash usullari va baholash mezonlari.	
34. Baholash markazlari usuli.	
35. Rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiya qilish tartibi.	
36. Personalni baholash ishlarini tashkil qilish.	
37. Kar'era va personalni o'qitish.	
38. Personalni o'qitishga ehtiyojni aniqlash	
39. Personalni o'qitish shakllari va usullari.	
40. Personalni rivojlantirishda o'qitishning roli.	
41. Kar'era ketma-ketligini rejalashtirish.	
42. Kasblar o'rindoshligi sxemasi. Ko'tarilishga personal rezervi	
43. Kar'erani tashkiliy rejalashtirish: asosiy tamoyillari, yutuklari va bosqichlari.	

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) “Kar'erani rivojlantirish” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: - personalni rivojlantirishni boshqarish texnologiyalari; - uning faoliyati natijalarini baholash asoslari; - kar'erani boshqarishga oid loyihalarning samadorligini baholash; - kar'erani boshqarish strategiyalari, takomillashtirish chora- tadbirlarini ishlab chiqishni bilishi va ulardan foydala olishi; - kar'erani boshqarishning zamonaviy texnologiyalari va boshqaruvning asosiy funksiyalarini amalga oshirish; - personalni boshqarish bo'yicha bilimlarning iqtisodiy va ijtimoiy samadorligini tahlil qilish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i> VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslanadigan amaldagi ishlarni baholash; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda qatnashish; • kichkina guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni baholash;	
--	--

• taqdimot tayyorlash;

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini muvaffaqiyatli topshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ricky W. Griffin. Fundamental of management. 8 th Edition. 2015.-510 p.
2. David Boddy. Management an Introduction. 2016 y. 714 p.
3. Yo'ldoshev N.Q., Nabokov V.I. "Menejment nazariyasi". Darlik. T.TDIU, 2013.-433 b.
4. Kucharov A.S. Menejment . O'quv qo'llanma. T.:TDIU, 2009 y. -120 b.
5. Sharifxodjaev M. Menejment.Darslik.T.: O'qituvchi, 2002.-464 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2020 yil 29 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning Samarqand shahrida o'tkazilgan «Markaziy Osiyo yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lida hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutqi. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1227>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qarori www.lex.uz.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
5. Мескон М.Х. и др. Основы менеджмента. 3-е издание: Пер. с англ. М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2008.- 672 с.
6. Richard L.Daft. Management. Ninth edition. 2010. y. 699 p.
7. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник. 3- изд.- СПб Питер, 2009.- 608. 2 экз.
8. Веснин В.Р. Менеджмент в схемах и определениях: Учебное пособие. – М.: Проспект, 2009. – 120 с

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
2. <http://www.mail.tdiu.uz>– TDIU elektron kutubxonasi
3. <http://www.el.tfi.uz>–TMI elektron kutubxonasi
4. <http://www.sies.uz>– SamISI elektron kutubxonasi
5. <http://lex.uz>– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi
6. www.ziynet.uz–ta'lim portali

O'quv dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2023 yil " " avgustdagi _____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Termiz davlat universiteti rektorining 2023 yil " " _____dagi _____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ullar:

Tuzuvchi:

S.T.Toshaliyeva – TerDU, "Biznes boshqaruvi va statistika" kafedrası mudiri (PhD)

Z.Yu.Xudayarova – TerDU, "Biznes boshqaruvi va statistika" kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Sh.N.Otamurodov – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori i.f.d., dotsent.

O'D.Radjapov – TerDU, "Turizm va mexmonxona xo'jaligi" kafedrası mudiri, i.f.d.